



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI SIYOSIY DISKURSDA FOYDALANILADIGAN HAZILLARNING EKSTRALINGVISTIK OMILLARI TAHLILI

Ziyayeva Kamolaxon Ziyaiddinovna
Andijon davlat universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi siyosiy diskursda hazil nutqiy janrining ekstralingvistik omillari pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hazilning lingvistik va nolingvistik komponentlari, uning madaniy kontekstga bog‘liqligi hamda kommunikativ funksiyalari yoritiladi. Nazariy asos sifatida zamonaviy lingvokulturologiya, pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslik yondashuvlari qo‘llanadi. Tahlil natijasida turli madaniyatlarda siyosiy hazilning qabul qilinishi va talqin qilinishida ekstralingvistik omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy diskurs, hazil, ekstralingvistik omillar, pragmatika, lingvokulturologiya, sarkazm, satira, madaniy kontekst.

АНАЛИЗ ВНЕЯЗЫЧНЫХ ФАКТОРОВ ШУТОК, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУССИИ НА АНГЛИЙСКОМ, УЗБЕКСКОМ И РОССИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Зияева Камолaxon Зияиддиновна
Андижанский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье с прагматической точки зрения анализируются экстралингвистические факторы юмористического жанра речи в политическом дискурсе на английском, узбекском и русском языках. Исследование освещает лингвистические и нелингвистические компоненты юмора, его зависимость от культурного контекста и коммуникативные функции. Теоретическая основа опирается на современные подходы лингвокультурологии, прагмалингвистики и когнитивной лингвистики. Анализ показывает, что экстралингвистические факторы играют решающую роль в восприятии и интерпретации политического юмора в разных культурах.

Ключевые слова: политический дискурс, юмор, экстралингвистические факторы, прагматика, лингвокультурология, сарказм, сатира, культурный контекст.

ANALYSIS OF EXTRALINGUISTIC FACTORS OF JOKES USED IN POLITICAL DISCOURSE IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN

Ziyayeva Kamolakhon Ziyaiddinovna
Andijan State University, Lecturer

Abstract

This article analyzes the extralinguistic factors of the humorous speech genre in political discourse in English, Uzbek and Russian from a pragmatic point of view. The study highlights the linguistic and non-linguistic components of humor, its dependence on the cultural context and communicative functions. The theoretical basis is based on modern linguoculturology, pragmalinguistics and cognitive linguistics approaches. The analysis shows that extralinguistic factors play a decisive role in the perception and interpretation of political humor in different cultures.

Keywords: political discourse, humor, extralinguistic factors, pragmatics, linguoculturology, sarcasm, satire, cultural context.

Zamonaviy tilshunoslikda siyosiy diskursni o‘rganish antropotsentrik paradigma doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Til endilikda faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, siyosiy nutqda qo‘llaniladigan hazil fenomeni ham ko‘p qirrali ilmiy tahlilni talab etadi. Hazil, ayniqsa, siyosiy diskursda bevosita tanqidni yumshatish, auditoriyaga ta‘sir ko‘rsatish va ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Hazilning nazariy asoslarini o‘rganishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, M. M. Baxtin kulgi madaniyatini ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilib, uni “qo‘rquv va rasmiylik ustidan g‘alaba” deb izohlaydi. Uning fikricha, kulgi ijtimoiy ierarxiyalarni vaqtincha buzib, erkin kommunikatsiya

muhitini yaratadi [3; 84-b.]. V. Raskin esa o'zining *Semantic Mechanisms of Humor* asarida hazilni ikki qarama-qarshi skriptning to'qnashuvi orqali yuzaga keluvchi semantik hodisa sifatida tushuntiradi. Olimning ta'kidlashicha, hazilni anglash uchun retsipiyentda muayyan fon bilimlari mavjud bo'lishi zarur, bu esa ekstralingvistik omillarning ahamiyatini ko'rsatadi [2; 28-b.]. S. Attardo esa hazilni pragmatik va diskursiv hodisa sifatida ko'rib, uning yuzaga kelishida kontekst, kommunikativ vaziyat va nutq ishtirokchilarining niyati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [5; 1663–1686-b.]. Lingvokulturologiya vakillari, jumladan, V. N. Karasik til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka urg'u berib, har qanday nutqiy hodisa, xususan, hazil milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar asosida shakllanishini qayd etadi [4; 47-b.]. O'zbek tilshunosligida ham bu masala e'tibordan chetda qolmagan bo'lib, B. M. Suvonqulov, Sh. Abdurahmonov va I. T. Rustamov kabi olimlar hazil va latifalarning lingvistik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar. Xususan, I. T. Rustamov latifalarni pragmatik-kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilib, unda kulgi hosil bo'lishida lisoniy vositalar bilan bir qatorda madaniy kontekstning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi [6; 43-b.]. Hazilning to'laqonli talqini ko'pincha ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'lib, ular nutq mazmunini anglashda asosiy rol o'ynaydi. Ekstralingvistik omillar tarkibiga madaniy kontekst, tarixiy sharoit, ijtimoiy stereotiplar, kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilarining bilim darajasi va dunyoqarashi kiradi. Ayniqsa, siyosiy diskursda bu omillar yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki siyosiy hazil ko'pincha yashirin ma'nolar, implikaturalar va kinoya orqali ifodalanadi [1; 56-b.].

Amaliy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz siyosiy diskursida hazil ko'proq sarkazm va satira shaklida namoyon bo'ladi:

“We used to have Reagan, Johnny Cash, and Bob Hope. Now we have Obama, no cash, and no hope.”

Yuqorida keltirilgan hazil parallel sintaktik tuzilish asosida qurilgan, ya'ni so'zlarda qofiyani ko'rish mumkin:

- Reagan – Johnny Cash – Bob Hope
- Obama – no cash – no hope

Bu yerda antroponimlarga asoslangan so'z o'yini qo'llanilgan bo'lib, Ronald Reagan — siyosatchi, Johnny Cash — mashhur qo'shiqchi, Bob Hope esa komik aktyordir. Ikkinchi qismda esa bu nomlar semantik transformatsiyaga uchraydi:

- Cash → no cash (pul yo'q)
- Hope → no hope (umid yo'q)

Natijada kalambur (*pun*) va fonetik o'xshashlik orqali komik effekt yuzaga keladi.

Semantik va pragmatik kesimda esa hazilning asosiy mexanizmi nomutanosiblik va chog'ishtirish usulidan foydalanilganidir, ya'ni o'tmish ijobiy obrazlar bilan ifodalansa, hozirgi zamon esa salbiy baholanadi.

Pragmatik jihatdan hazil siyosiy satiraga mansub bo'lib, u Barak Obama faoliyatiga nisbatan yashirin tanqidni ifodalaydi. Bu yerda implikatura shundan iboratki, avvalgi davr barqaror va ijobiy bo'lgan, ammo hozirgi davr esa iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq.

Hazilni tushunishda quyidagi ekstralingvistik omillar muhim:

1. **Tarixiy-siyosiy kontekst:** Reagan davri ko'pincha konservativ barqarorlik davri sifatida idealizatsiya qilinadi.
2. **Iqtisodiy holat:** “no cash” iqtisodiy inqiroz yoki moliyaviy muammolarga ishora qiladi.
3. **Madaniy bilim:** Johnny Cash va Bob Hope kabi shaxslarni tanish zarur.
4. **Siyosiy ideologiya:** hazil ma'lum bir siyosiy pozitsiyani, ko'proq konservativ qarashlarni aks ettiradi.

Rus siyosiy diskursida esa hazil ko'proq yashirin va kinoyali xarakterga ega. Masalan:

**Стал крокодил Гена по вечерам поздно домой возвращаться, а раз пришел и говорит:
— Я в партию вступил, меня в президенты выдвигают!**

— В какую партию, Гена?

— У нас, крокодилов, одна партия — партия зеленых, а ты пошел вон, красно-коричневая чума!

Ushbu hazil matnini lingvopragmatik tahlilga tortsak, u holda komik effekt, avvalo, intertekstual nomutanosiblik asosida shakllanganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bolalar adabiyotiga mansub bo'lgan qahramon — timsoh Gena (multfilm obrazi) siyosiy kontekstga kiritilgan. Natijada “ertak qahramoni” va “real siyosiy diskurs” qarama-qarshiligi kulgi uyg'otadi. Bu holat V. Raskin ta'riflagan ikki skript —

“fantastik/bolalar dunyosi” va “real siyosiy kurash” skriptlarining to‘qnashuvi sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, matnda bir nechta lingvistik mexanizmlar kuzatiladi, ya’ni polisemantik va metaforik birliklar bo‘lmish “yashillar partiyasi” bir vaqtning o‘zida denotativ ma’no kasb etib, timsohning rangini ifoda etadi, konnotativ ma’noda esa real siyosiy partiyalarni anglatadi. Matn tarkibida sarkazm ham mavjud bo‘lib, **“красно-коричневая чума”** iborasi kuchli baholovchi birlikdir va siyosiy raqibni keskin diskreditatsiya qilish vazifasini bajaradi. Bu yerda sarkazm orqali salbiy munosabat ifodalanadi. Hazil dialog tarzida berilib, kommunikativ vaziyatni jonlantiradi va pragmatik ta’sirni kuchaytiradi.

Mazkur hazilni to‘liq anglash uchun quyidagi ekstralingvistik omillar muhim. Birinchisi, **madaniy va intertekstual fondir**. Timsoh Gena sobiq Ittifoq davrida mashhur multfilm qahramoni hisoblanadi, uni siyosiy kontekstga olib kirish komik effektini kuchaytiradi. Bu intertekstual bilim ega bo‘lmagan retsiyent hazilni to‘liq tushunmasligi mumkin. Ikkinchisi, **siyosiy kontekst va stereotiplar** bo‘lib, “yashillar partiyasi” ekologik siyosiy harakatlarga ishora qiladi. “Qizil-jigarrang vabo” esa tarixiy-siyosiy diskursda ekstremistik yoki radikal kuchlarga nisbatan ishlatiladigan metafora hisoblanadi. Bu birliklar siyosiy qarama-qarshilik va ideologik kurashni aks ettiradi. Keyingisi, **ijtimoiy baholash va ideologik pozitsiyadir**. Unga ko‘ra, hazilda “biz” va “ular” oppozitsiyasi mavjud. Gena o‘zini “yashillar” bilan identifikatsiya qilib, boshqalarni rad etadi. Bu esa siyosiy diskursga xos bo‘lgan polyarizatsiya strategiyasini ko‘rsatadi. Navbatdagi omil **pragmatik niyat** bo‘lib, nutq egasining asosiy maqsadi kulgi uyg‘otish, siyosiy qarama-qarshilikni kinoya orqali ifodalash hamda auditoriyani ma’lum pozitsiyaga yo‘naltirishdir.

O‘zbek siyosiy diskursida esa hazil ehtiyotkorlik bilan, ko‘proq bilvosita shaklda ifodalanadi. Masalan:

Podsho, vazir va Nasriddin Afandi ovga chiqishdi. Yo‘lda podsho ustidagi chakmonini yechib Afandiga berdi. Buni ko‘rgan vazir ham chakmonini yechib Afandiga uzatdi. Podsho Afandiga tegajog‘lik qilib:

— Afandi, ustingizdagi bir eshakning yuki bo‘ldi-mi? — dedi.

Afandi darhol:

— Yo‘q, shohim, ko‘rib turibdilar-ku, ikki eshakning yuki! — deb javob berdi.

Mazkur latifada kulgi fikrlar qarama-qarshiligi natijasida yuzaga keladi. Podsho tomonidan aytilgan “bir eshakning yuki” iborasi kinoyaviy ma’noga ega bo‘lib, Afandini pastga urish, uni xizmatkor sifatida kamsitish niyatini bildiradi. Afandi esa ushbu nutqiy vaziyatga tezkor va kutilmagan javob qaytarib, komik effektini kuchaytiradi.

Podsho bu “eshakning yuki” iborasini bitta shaxsga nisbatan ishlatib, Afandi uni kengaytirib, “ikki eshakning yuki” deya qayta talqin qiladi. Dialogik qarama-qarshilikda nutq akti savol-javob shaklida bo‘lib, kutilmagan javob orqali kulgi hosil qiladi. Bu yerda hazil mexanizmi kutilmagan javob (pragmatik effekt) va mazmunning qayta interpretatsiyasi orqali yuzaga keladi.

Latifa mazmunida ijtimoiy ierarxiyaning guvohi bo‘lamiz, ya’ni uchta obraz — podsho, vazir va Afandi obrazlari retsiyentda qadimgi davr muhiti va undagi munosabatlar tasvirini chizib beradi. Bu ierarxik tizimda podsho eng yuqori maqom sifatida, vazir o‘rta bo‘g‘in vakili sifatida, Afandi esa oddiy xalq vakili rolida namoyon bo‘ladi. Hazil aynan shu ierarxiyani “buzish” orqali yuzaga kelib, Afandi yuqori mavqedagi shaxsga qarshi hazil orqali javob qaytaradi. O‘zbek madaniyatida kattaga hurmat qilish muhim qadriyatdir. Shu bois bevosita qarshilik bildirish odatda cheklangan. Natijada Afandi javobi ochiq haqorat emas, balki bilvosita kinoya shaklida beriladi. Bu yuqori kontekstli madaniyatga xos xususiyatdir. Afandi obrazi xalq donishmandligi, zukkolik va hazil orqali haqiqatni aytish timsolidir. U kuchli shaxsga qarshi turadi, lekin buni hazil orqali amalga oshiradi. Bu ekstralingvistik omil hazilni tushinishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur latifada komik effekt lingvistik vositalar (metafora, semantik siljish, dialog) hamda ekstralingvistik omillar (ijtimoiy ierarxiya, milliy mentalitet, arxetipik obraz) uyg‘unligi asosida yuzaga keladi. Afandi nutqi pragmatik jihatdan kuchli bo‘lib, u nafaqat kulgi uyg‘otadi, balki yashirin ijtimoiy tanqidni ham ifodalaydi. Shu bois ushbu latifa o‘zbek lingvomadaniyatida hazil orqali haqiqatni ifodalashning yorqin namunasi hisoblanadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, uchala til va madaniyatda hazilning lingvistik mexanizmlari o‘xshash bo‘lsa-da, uning pragmatik talqini ekstralingvistik omillarga bevosita bog‘liq. Ingliz madaniyatida ijtimoiy tanqid ochiq ifodalansa, rus madaniyatida u kinoya orqali, o‘zbek madaniyatida esa yumshoq va ehtiyotkor shaklda namoyon bo‘ladi. Bu farqlar milliy mentalitet, tarixiy tajriba va kommunikativ qadriyatlar bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy diskursdagi hazilni to‘g‘ri anglash uchun nafaqat lingvistik bilim, balki chuqur madaniy va ijtimoiy bilimlar ham zarur. Ekstralingvistik omillar hazilning mazmunini

shakllantirishda va uni talqin qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur tadqiqot natijalari lingvokulturologiya, pragmatika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Attardo S. Linguistic theories of humor. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.
2. Raskin V. Semantic mechanisms of humor. – Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1985. – 28 p.
3. Bakhtin M. M. Rabelais and his world. – Bloomington: Indiana University Press, 1984. – 84 p.
4. Karasik V. I. Language circle: personality, concepts, discourse. – Volgograd: Peremena, 2002. – 47 p.
5. Attardo S. Humor and irony in interaction: from mode adoption to failure of detection // *Journal of Pragmatics*. – 2001. – Vol. 33. – P. 1663–1686.
6. Rustamov I. Kichik janr matnlarning pragmatik-kognitiv va milliy-madaniy mohiyati (o'zbek va ingliz latifalari misolida): PhD diss. – T., 2019. – 43 b.
7. Abdurahmonov Sh. A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar: filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – T., 1997. – 23 b.
8. Suvonqulov B. M. O'zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari: filol. fan. nom. ... dis. avtoref. – T., 2008. – 26 b.